ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

HOZIRGI DAVRDA O‘QUVCHILAR QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ramazonova Ziynat Ulug‘bek qizi
Navoiy davlat univarsiteti
“Musiqa ta’limi” yo’nalishi
Ilmiy rahbar :
Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi
Navoiy davlat universiteti
“Musiqiy ta’lim”kafedrasi v.b.dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi davrda qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o’rni ijobiy ta’siri va salbiy ta’sirlari keng yoritilgan. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar bilim olishni oson, tez va qiziqarli qilyapti .Masalan dizayn, video montaj, musiqa yaratish yoki raqamli platformalar kabi faoliyatlar yoshlarning ijodiy va texnik qobiliyatlarini oshirishga ijobiy ta’sir qilyapti. Zamonaviy texnologiyalar fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish hamda individual qobiliyatni kuchaytirishga katta xissa qo’shyapti. Biroq zamonaviy texnologiyalardan haddan tashqari ko’p foydalanish diqqatni pasaytirish, vaqtni behuda sarflash va bir nechta salbiy tamonlarga olib kelishi haqida keltirilgan.

Kalit so’zlar: Zamonaviy texnologiya, raqamli ta’lim, qobiliyatni rivojlantirish, onlayn platformalar, sun’iy intellect, ijodkorlik.

Аннотация: В данной статье подробно освещается роль современных технологий в развитии способностей в настоящее время, а также их положительное влияние. В современном мире технологии делают процесс получения знаний более лёгким, быстрым и интересным. Например, такие виды деятельности, как дизайн, видеомонтаж, создание музыки или программирование, способствуют развитию творческих и технических способностей молодёжи. Современные технологии также вносят значительный вклад в развитие мышления, аналитических навыков, самостоятельного принятия решений и укрепление индивидуальны способностей. Однако чрезмерное использование современных технологий может привести к снижению внимания, неэффективной трате времени и ряду других негативных последствий.

Ключевые слова: современные технологии, цифровое образование, развитие способностей, онлайн-платформы, искусственный интеллект, творчество.

Annotation: This article thoroughly examines the role of modern technologies in developing abilities in the role of modern technologies in developing abilities in the present time, as well as their positive and negative impacts. Nowadays, modern technologies make acquiring knowledge easier, faster, and more engaging. For example, activities such as design, video editing, music creation, or coding help enhance the creative and technical abilities of young people. Modern technologies also make a significant contribution to developing thinking, analytical skills, independent decision-making, and strengthening individual abilities. However, excessive use of modern technologies can lead to decreased attention, wasting time, and several other negative consequences.

Keywords: modern technologies, digital education, ability development, online platforms, artificial intelligence, creativity.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta’lim tizimi tubdan o’zgarib bormoqda. Ayniqsa zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi o’quvchilarning bilim olish uslubi, fikrlash

doirasi va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga sezilarli darajada o'z ta'sirini sezilarli darajada namoyon etmoqda. Bugungi kunda o'quvchilar faqatgina tayyor bilimni qabul qilibgina qolmay, balki mustaqil izlanadigan, axborotlarni tahlil qiladigan va yangi-yangi g'oyalarni yaratuvchi shaxs sifatida shakllanib o'sib bormoqda. Shu nuqtai nazardan , zamonaviy texnalogiyalar ta'lim samaradorligini yuqori darajaga oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy texnalogiyalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv, samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Masalan, multimedia vositalari orqali murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish osonlashadi. Bu esa o'quvchilarning mavzuni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishiga katta yordam beradi. Shuningdek, onlayn platformalar orqali masofaviy ta'lim olish imkoniyati kengayib, bilim olish chegaralari kundan-kunga kengayib bormoqda.

Zamonaviy texnalogiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati

Bugungi globallashuv jarayonida internet hayotimizning har bir jabhasini qamrab olgan. Yosh avlod orasida ijtimoiy tarmoqlardan, turli saytlardan chet tillarini o'rganishda oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda ta'lim sohasida zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnalogik rivojlanish ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qilishga yordam bermoqda. An'anaviy dars metodlaridan farqli o'laroq, zamonaviy texnalogiyalar orqali o'quv jarayoni yanada interaktiv bo'ladi. Masalan, taqdimotlar, video darslar va simulzatsiyalar yordamida o'quvchilar mavzuni osonroq tushunishlari va faol qatnashishlari mumkin. Bu usul o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va darsni qiziqarli qiladi. Internet va raqamli qurulmalar orqali masofaviy ta'limga kirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu ayniqsa pandemiya davrida dolzarb bo'ldi. Talabalar o'z uylaridan chiqmasdan turib, dunyoning istalgan joyidan ta'lim dasturlaridan foydalashishlari mumkin. Bu ta'lim olishdagi geografik cheklovlarni bartaraf etadi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar kerakli ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega. Onlayn darsliklar, ilmiy maqolalar va ta'limiy videolar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirishlari mumkin. Bu esa ularning mustaqil o'qish va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantiradi. Har bir o'quvchining bilim olish sur'ati va usuli farqli. Zamonaviy texnalogiyalar ta'limni individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, maxsus dasturlar va ilovalar orqali har bir o'quvchi o'z bilim darajasiga mos ravishta o'qib, qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi.

Zamonaviy texnalogiyalarning o'quvchilarga salbiy tomonlari

Zamonaviy texnalogiyalar ta'lim jarayoniga ko'plab qulayliklar olib kirgan bo'lsa-da, ulardan haddan tashqari yoki noto'g'ri foydalanish o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Avvalo, uzoq vaqt telefon, kompyuter yoki planshetdan foydalanish o'quvchilarning diqqatini susaytiradi va darsga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar o'yinlar va ko'ngilochar dasturlar ko'pincha ularning asosiy vaqtini egallab, bilim olish jarayoniga salbiy tasir qiladi. Bundan tashqari, texnalogiyalarga ortiqcha bog'lanish o'quvchilarga internetga qaramlik yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat esa vaqtni behuda sarflash, mustaqil fikrlashning pasayishi hamda real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning sustlashishiga olib keladi. Shuningdek, doimiy ekran qarshisida bo'lish ko'z salomatligi, uyqu sifatini va jismoniy faollikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda o'quvchilar ongiga yomon ta'sir ko'rsatadigan axborotlar Kundan-kunga ko'paymoqda, shuningdek keraksiz ma'lumotlar yolg'on axborotlar va zararli kontent yoshlarning dunyo qarashi shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sabablar tufayli zamonaviy texnalogiyalardan foydalanishda nazorat, me'yor va maqsadga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'limda qo'llash usullari

1.Elektron darsliklar va platformalar

Onlayn ta'lim platformalari va electron darsliklar talimning samaradorligini oshiradi. Masalan, "Google Classroom", "Moodle" kabi platformalar orqali o'qituvchilar topshiriqlarni berishlari, o'quvchilar esa ularni bajarib topshirishlari mumkin. Bunda ta'lim tezkor va tartibli bo'ladi.

1. Virtual va kengaytirilgan moslamalar

Virtual (VR) va kengaytirilgan moslama (AR) texnalogiylari yordamida o'quvchilarni haqiqiy hayotga yaqinlashtiradigan muhitlar yaratiladi. Bu, ayniqsa, ilm-fan, tibbiyot, va texnalogiya sohalarida qo'llaniladi. Masalan, VR orqali biologiya darsida inson tanasi tuzilishini o'rganish yanada samarali bo'ladi.

3.Mobil ilovalar

Ta'limga mo'ljallangan mobil ilovalar o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtlarda ham bilim olish imkoniyatini beradi. Masalan, til o'rganish uchun mo'ljallangan dasturlar va boshqa ko'plab vositalar o'quv jarayonini to'ldiradi. Bugungi kunda "Ibrat Maktabi" platformasi bugungi yaqqol namunasi deb ayta olaman. Zamonaviy texnalogiyalardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilish zamon talablaridan biridir, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi ham shunga monand bo'lib, bugungi kunda darslarni ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi kunda ko'plab soha vakillariga chet tillarini o'qitishning samarali yo'llaridan biri ham aynan shu texnalogiyalardan foydalanishdir. Shifokorlar, Muhandislar, Iqtisodchilar va boshqa soha vakillari chet tillarini o'zlashtirish orqali Jahon bozorida va ilmiy sohalarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritib o'z o'zlariga ega bo'lmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnalogiyalar o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv tashkil etib, o'quvchilarning bilim olish, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshiradi. Shu bilan birga, texnalogiyalardan noto'g'ri foydalanish salbiy oqobatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy texnalogiyalarni ta'limda to'g'ri va maqsadli qo'llash o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizov, B (2020). Zamonaviy texnalogiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Normurodov, Sh.(2019). Raqamli texnalogiyalarning ta'limdagi o'rni. Toshkent: Innavatsion Ta'lim Nashriyoti.
3. Karimov,A.(2021). Masofaviy ta'lim va uning imkoniyatlari. Samarqand: Ilmiy Nashriyot.
4. Yusupov, N. (2018). Ta'lim jarayonida texnalogiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. Nukus: Qoraqalpog'iston Universiteti Nshriyoti.
5. Tursunova, Z. (2020). Virtual reallik va uning ta'limdagi ahamiyati. Andijon: Andijon Davlat Universiteti Nashriyoti.